

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.I.Nurmatova

Talabalarda oila iqtisodiga oid kompetensiyalarni takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatdan tadqiq qilinishi 107

D.B.Mahometova

Use of information technologies in education..... 112

M.Norinov

Bo'lajak texnik mutaxassislarning kasbiy kompetensiyasini multimedia vositalari asosida bosqichma-bosqich rivojlantirish texnologiyasi..... 115

G.T.Hojikarimova

Integrativ yondashuv asosida bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini maxsus kompetensiyalarini shakllantirish pedagogik muammo sifatida 119

X.M.Jo'rayev

Kimyo o'qituvchilarining o'zini-o'zi rivojlantirish omillari 123

N.B.Odilxo'jazoda

Kimyo o'qituvchisi kasbiy kompetentligini aniqlash metodikasini takomillashtirishning pedagogik-psixologik asoslari..... 128

B.T.Tojibayev, S.S.Isokov

Globallashuv kontekstida – ta'lim 132

D.Q.Oxunova

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy bilimlarni kognitiv idrok etish kompetensiyalari..... 136

N.E.Yuldasheva

Jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda integrativ yondashuvning o'ziga xos xususiyatlari 140

B.X.Baydjanov, Y.E.Mamatova

Boshlang'ich ta'limda mediamadaniyat va texnoetikani o'qitish texnologiyasini takomillashtirish..... 144

FALSAFA**Б.С.Ганиев**

Социально-политические факторы повышения предпринимательской культуры в Узбекистане 150

M.D.Pardaeva

Uchinchi renessans poydevorini yaratishda Navoiy Naqshbandiyona g'oyalarining ahamiyati..... 156

Z.P.Nadirova

Intuitive cognition as a synergistic process..... 161

X.X.Raxmatova

Naqshbandiylik – jahoniy ta'limot 165

Z.A.Akhmedova

Donishning ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish haqidagi fikrlari tahlili..... 170

B.X.Karimov

Ong muammosining ilmiy – falsafiy va psixologik talqini..... 175

L.M.Karimova

Jamiyatni modernizatsiyalash sharoitida ayollarning ijtimoiy mobilligini takomillashtirish mexanizmlari 180

M.M.Gulamova

Yangi O'zbekiston yoshlarini tarbiyalashda "Naqshbandiya Tariqati Nazariyotchisi" ta'limotining ahamiyati..... 185

O.T.Sharipova

Xojagon tasavvufiy ta'limotida "Olami Kabir" haqida 189

Sh.B.Sattorova

Mirzo Abdulqodir Bedilning inson va jamiyat haqidagi ta'limotida adolat va tenglik muammosini o'ziga xos taddiqi..... 194

B.X.Hamdamov

Boburning insonparvarlik – falsafiy qarashlari..... 200

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KASBIY BILIMLARNI KOGNITIV IDROK ETISH KOMPETENSIYALARI

КОМПЕТЕНЦИИ ПОЗНАВАТЕЛЬНОГО ВОСПРИЯТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ ЗНАНИЙ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

COMPETENCIES OF COGNITIVE PERCEPTION OF PROFESSIONAL KNOWLEDGE OF FUTURE TEACHERS

Oxunova Dilnoza Qaxxonjonovna¹

¹Farg'onan davlat universiteti, o'qituvchi

Annotatsiya

Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy bilimlarni kognitiv faoliyat asosida o'zlashtirish kompetensiyalari va ularning kasbiy faoliyatdagi o'rni, kasbiy bilimlarni rivojlantirishning ayrim masalalari, kognitiv idrok etishning ahamiyati, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy bilimlarini kognitiv idrok etishning dolzarbligi ochib berilgan.

Annotatsiya

В данной статье раскрываются компетенции овладения профессиональными знаниями будущих учителей на основе познавательной в профессиональной деятельности и их роль, некоторые вопросы формирования профессиональных знаний, значение познавательного восприятия, актуальность познавательного восприятия профессиональных знаний будущих учителей.

Abstract

This article reveals the competencies of mastering the professional knowledge of future teachers on the basis of cognitive activity and their role, some issues of the formation of professional knowledge, the importance of cognitive perception, the relevance of the cognitive perception of the professional knowledge of future teachers.

Kalit so'zlar: kognitiv faoliyat, intellektual, motiv, kasbiy bilimlar, qobiliyat, dasturiy ta'llim, loyihalash, modellashdirish, kreativlik, kompetentlik.

Ключевые слова: познавательная деятельность, интеллектуальная, мотивация, профессиональные знания, способности, программирование, обучение, конструирование, моделирование, творчество, компетентность.

Key words: cognitive activity, intellectual, motivation, professional knowledge, abilities, programming, training, design, modeling, creativity, competence.

KIRISH

Bugungi kunda bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayoni mazmunini modernizatsiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jahondagi rivojlangan mamlakatlar AQSh, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya, Singapur, Yaponiya, Rossiya, Finlandiya ta'llim tizimida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy bilimlarni kognitiv qabul qilish imkoniyatlarini kengaytirish sohasida samarali ishilar amalga oshirilgan hamda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy bilimlarni kognitiv idrok etishga va ta'llim berish sifatini samarali oshirishga dolzarb vazifa sifatida qaralgan. Respublikamizda ham xalqaro tajribalardan samarali foydalangan holda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-kreativ sifatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan tadqiqotlarga ustuvor o'rin ajratilmoqda.

Ma'lumki, umumiyl o'rta ta'llimni yangi sifat bosqichiga ko'tarmasdan turib, o'quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlash mumkin emas. Buning uchun nazariy imperik yondashuvlarni pedagogik jarayonga tafbiq etishga alohida e'tibor qaratish talab qilinmoqda. Shu o'rinda umumiyl o'rta ta'llim oldida turgan eng muhim muammo nimadan iborat, degan haqli savol tug'iladi. Kuzatishlarimiz shuni ko'satmoqdaki, umumiyl o'rta ta'llim maktablarida o'quvchilar uchun har doim ham yetarlicha shart-sharoitlar mavjud emas. Mayjud vaziyatni yaxshilash uchun davlat tomonidan ko'rيلотган chora-tadbirlar o'z samarasini berayotganini ta'kidlash bir qatorda, aytib o'tish kerakki, sohada yangi muammolar ham vujudga kelyapti.

Har qanday islohot jarayonida bo'lgani kabi umumiyl o'rta ta'llimni modernizatsiyalashda ham pedagog kadrlarni o'qitish, tayyorlash muhim o'rinn egallaydi. Ayniqsa, ularning umumiyl o'rta ta'llim jarayonini tashkil etishga oid bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini rivojlantirish muhim hisoblanadi. Chunki umumiyl o'rta ta'llim maktablarida faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchilarda mazkur ta'llim muassasalarda pedagogik jarayonni tashkil etishga oid bilimlar haqidagi tasavvurlar yetarlicha shakllanmaganligiga guvoh bo'ldik. Shu bilan bir qatorda umumiyl o'rta ta'llim bo'yicha

PEDAGOGIKA

oliy ta'lif muassasasini bitirayotgan yosh mutaxassislarda ham o'z bilim darajalari ko'lami va kompetensiyalarini to'liq tasavvur qila olmaslik holatlari kuzatildi [1,160]. Shuning uchun ham umumi o'rta ta'lif maktablari uchun o'qituvchilar tayyorlash jarayonini ilmiy metodik jihatdan modernizatsiyalash haqidagi bilimlar bilan qurollantirish, shu maqsadda, ta'lif mazmuniga quyidagi pedagogik tafsiflarni kiritish talab qilinmoqda. Bo'lajak o'qituvchilarini kasbiy malakasiga qo'yiladigan yangi talablar umumi o'rta ta'lif maktablari o'qituvchilarining bilim darajasini va kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda belgilab beriladi. Buning uchun umumi o'rta ta'lif maktablarida faoliyat ko'rsatadigan bo'lajak o'qituvchilarga taqdim etiladigan kabi bilimlarni yangi pedagogik tushunchalar, yondashuvlar va konsepsiylar hisobiga boyitish lozim.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Bo'lajak o'qituvchilar o'quvchilarning iqtidorlarini erta aniqlash metodikalari bilan quollangan bo'lislari maqsadga muvofiq. Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarning kognitiv layoqatlari va kasbiy shakllanishlarini qo'llab-quvvatlash alohida ahamiyatga ega. Har bir bo'lajak o'qituvchi kasbiy bilimlarni mustaqil tarzda izlab o'rganish ko'nikmasiga ega bo'lishi lozim. Umuman oly pedagogik ta'lif mazmunini modernizatsiyalash qonuniyatlar va topshiriqlar majmuini o'z ichiga olgan yaxlit tizim hisoblanadi. Bunday faoliyat natijasini sifatli baholash imkoniyatlari yildan yilga kengayib borishi uchun dastlab bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, ularni umumi o'rta ta'lif jarayonini tashkil etish metodikalari bilan qurollantirish zaruriyati kuchaymoqda. Chunki umumi o'rta ta'lif jarayonini innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish bo'lajak o'quvchilarning bu sohadagi bilim va tajribalari, kasbiy kompetensiyalariga bevosita bog'liq. Shu bilan bir qatorda umumi o'rta ta'lif sifatini va samaradorligini ta'minlash orqali o'quvchilarning intellektual, jismoniy, ma'naviy-axloqiy rivojlanish darajasidagi farqlar va tafovutlarni bartaraf etish imkoniyatlari kengayadi.

Umumi o'rta ta'lif jarayonini tashkil etish o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, innovatsion pedagogik faoliyatni talab qiladi. Bunda o'qituvchi bilan o'quvchilar orasida subyekt-subyekt munosabatlarining o'rnatilishi muhim ahamiyatga ega. Umumi o'rta ta'lif jarayonini samarali tashkil etish uchun bo'lajak o'qituvchilarni kreativ kasbiy faoliyatga tayyorlash talab qilinadi. O'zining xarakteriga ko'ra, kreativ pedagogik ijodkorlik va tadqiqotchilik faoliyatiga yaqin bo'lib, kasbiy bilimlar va axborotlarni tanlash, tahlil qilish, ijodiy qo'llash natijasida tashkil etiladi.

Mutaxassislar kasbiy kompetensiyalarning integrativ xarakterga ega ekanligini ta'kidlaganlar. Jumladan, R.Safarova "Shaxsni shakllantirish omillari", N.Muslimov "Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari", B.Xodjayev "Umumta'lif maktablari o'quvchilarida tarixiy tafakkurni modernizatsiyalashgan didaktik ta'minot vositasida rivojlantirish" nomli ilmiy izlanishlarida kasbiy kompetensiyalar shaxsnинг o'zi bajarayotgan faoliyatini ijtimoiy pedagogik vaziyatlarda samarali amalga oshira olish layoqati ma'nosini ifodalashini ta'kidlaganlar [3,13].

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da atamaga ta'rif berilib, Kompetensiya (lot. competo – erishyapman, munosibman, loyiqlaman) pedagogning kasbiy bilimlari, tajribalarini ifodalaydi, deb ko'rsatilgan.

Oliy pedagogik ta'lif jarayonida umumi o'rta ta'lif muassasasida samarali faoliyat olib borish uchun bo'lajak pedagogga zarur bo'ladigan bir qator kasbiy sifatlar, ko'nikma va layoqatlar shakllantirilishi kerak. Ular:

1. O'z kasbining sir-asrорларини yaxshi o'zlashtirgan bo'lislari.
2. O'z faoliyatida zamonaviy bilimlar va umumi o'rta ta'lifning me'yoriy-huquqiy asoslariga tayana olish ko'nikmasini egallashlari.
3. Izlanuvchanlik, umumi o'rta ta'lif sohasidagi yangiliklarni o'zlashtirishga intiluvchanlik, bu sohadagi ilg'or tajribalarni o'rganish, pedagogik jamoaning o'ziga xos xususiyatlarini bilishlari.
4. Keng siyosiy dunyoqarashga ega bo'lishi, ilmiy-metodik va boshqaruvchilik salohiyatini rivojlantirishga oid kasbiy bilimlarni o'zlashtirishlari.
5. Jamoa a'zolari, ota-onalar, mahalla va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlik qilishga oid bilimlarni o'zlashtirishlari.
6. Sezgir, o'quvchilarga e'tiborli, xushmuomala, muloqotga kirishuvchan, jamoadoshlarining mehnatini qadrlay oladigan adolatli va qat'iyatli, kasbidan kelib chiqqan holda kiyinish odobiga ega bo'lishlari.

7. Pedagogik faoliyatga nisbatan vijdonan munosabatda bo'lish, o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni sidqidildan bajarish va o'quvchilar bilan hamkorlikda ishlash jarayonida ular orasida rollarni to'g'ri taqsimlash haqidagi bilimlarga ega bo'lishlari.

8. Zamonaviy umumiy o'rta ta'lif muassasasi oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarni chuqr o'rganib, ularning yechimini topishga oid bilimlarni kognitiv o'zlashtirishlari.

9. Fidoyilik, mas'uliyatlilik, poklik, qat'iyilik, jamoa manfaati yo'lida jonbozlik ko'rsatish, mehnatsevarlik, adolatlilik, o'ziga va o'zgalarga talabchanlik hamda tejamkorlik sifatlarini egallashlari.

10. Mustaqil bilim olishi, kasbiy ko'nikmalari doirasini kengaytira olishi, o'z-o'zini nazorat qilishi va baholay olishlari.

11. Mustaqil bilim asosida shaxsiy-kasbiy rivojlanish tadrijiga ega bo'lishi, kasbiy bilimlari, pedagogik layoqati va kompetensiyalarini muntazam takomillashtirib borishlari.

12. Zamonaviy umumiy o'rta ta'lif maktablarida ishlash layoqatini egallashi, raqamli texnologiyalaridan mustaqil foydalana olishi, axborotlarni to'plash, saralash va o'z o'rnida qo'llash kompetensiyasiga ega bo'lishlari.

13. O'quvchilar orasidagi gender tenglik va farqlarni hisobga ola bilishi, istiqboldagi pedagogik faoliyatida unga amal qilish texnikasini o'zlashtirishlari.

14. O'quvchilarning qadr-qimmati, sha'ni, obro'si, uni himoya qilish bilan bog'liq pedagogik qoidalar va talablarni bilishlari va ulardan o'z o'rnida foydalana olishlari.

15. Pedagogik hodisalar ustida tanqidiy fikrlash, ularni tanqidiy baholash ko'nikmasiga ega bo'lishlari.

16. Pedagogik amaliyot jarayonida o'quvchilar bilan hamkorlikda ishlash, ular bilan shaxslararo qadriyatli munosabatga kirish ko'nikmalarini namoyon qila olishlari, o'zlarini egallagan pedagogik bilimlarni kognitiv qo'llay olishlari va kasbiy kompetensiyalarga aylantira olishlari, o'zlarini va o'quvchilarning faoliyati natijalarini tashxislash va baholash metodikalarini o'zlashtirilgan bo'lishlari.

17. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lif to'g'risida"gi Qonuni va shunga muvofiq ishlangan me'yoriy hujjatlar, yo'riqnomalarning mazmun mohiyatini anglab yetgan bo'lishlari, unga amal qilish ko'nikmalari hamda tashkilotchilik layoqatini rivojlantirishga xizmat qiladigan bilimlarni egallashlari. Mazkur maqsadga erishish uchun "Pedagogika nazariyasi" kursining mazmunini boyitish va pedagogik bilimlarni rivojlantirishga xizmat qiladigan mavzularni ko'paytirish talab etiladi [2, 54-57].

Yuqorida keltirilgan talablardan pedagogika turkum fanlari mazmunini boyitishda foydalanishni nazarda tutish alohida ahamiyatga ega. Oliy pedagogik ta'lilda amalga oshiriladigan ta'lif-tarbiya jarayonini mazmunan boyitishda talabalarning kasbiy bilimlarni kognitiv idrok etish kompetensiyasini rivojlantirishga ustuvorlik berish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ xarakterdagи kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish maqsadida ularning ma'naviy dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladigan bir qator bilimlarni taqdim etish, shu asosda talabalarning shaxsiy kasbiy sifatlarni rivojlantirish nazarda tutiladi. Jumladan:

- o'quvchilarning ota-onalariga hamkorlik o'rnatishga oid pedagogik bilimlarni o'rnatish;
- o'quvchilarning ijodkorligi va tashabbuskorligi, mobilligini rag'batlantirishga xizmat qiladigan metodika o'zlashtirish;
- o'z kursdoshlarining tanqidiy fikrlarini tinglay olish, uni tabiiy tarzda qabul qilish, ularga o'z munosabatni bildirish;
- o'quvchilarga ishonch bildirish, ularni qo'llab-quvvatlash, yutuqlarini tan ola bilish, xatti-harakatlarini tahlil qilish va tanqidiy baholash layoqatiga ega bo'lish;
- o'quvchilarning xulq-atvorigagi bo'shliqlarini aniqlash, uni muntazam tashxislash va korreksiyalash metodikalarini o'zlashtirish
- o'quvchilar yo'l qo'yilgan xatolarini aniqlash uning salbiy va ijobiy tomonlarini tushuntirish usullarini o'zlashtirish;
- o'quvchilarning o'quv tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash va muntazam rag'batlantirish metodikalarini qo'llash texnikasiga ega bo'lish;
- o'zini boshqalar o'rniqa qo'ya olish;

PEDAGOGIKA

- guruhdoshlari bilan hamkorlik qilish, nostandard qarorlar qabul qilish tajribasiga ega bo'lish;
- umumiy o'rta ta'lif o'quv dasturlar o'quv rejalar, darsliklarni tahlil qilish, ularni tanqidiy baholash yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish;
- o'quvchilarning yutuqlarini rag'batlanirish, kamchiliklarni aniqlash va bartaraf etish metodikalarini bilish;
- tanqidiy fikrlarga nisbatan tolerant munosabatda bo'lish tajribasini egallash;
- o'z xatolarini tan olishga o'quvchilarni o'rgatish usullarini bilish;
- umumiy o'rta ta'lifni tashkil etishning huquqiy-me'yoriy asoslarini yaxshi bilish.

Bo'lajak o'qituvchilarda mashg'ulotlarni samarali tashkil etish ularning ijodkorlik faoliyatları, bilim olish samaradorligi, ma'naviy rivojlanganligi, kasbiy kompetensiyani egallaganligi, o'quv jarayonini loyihalash va tashkil etishga tayyorligi bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy bilimlarni kognitiv o'zlashtirganligi, kompetensiyalarni egallaganligiga bog'liq.

XULOSA

1. Davr o'tishi bilan har bir sohada bo'lgani kabi o'qitish jarayonlarini tashkil etishga ham yangi talablar vujudga keldi. Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy bilimlarni kognitiv qabul qilish kompetnesiyasini shakllantirish orqali ularda kreativ kasbiy faoliyat tajribasini hosil qilish borasida yechimini kutayotgan qator muammolarning mavjudligi ularni bartaraf etishning ilmiy asoslarini yaratish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

2. Bugungi kunga kelib O'zbekiston Respublikasida oliy pedagogik ta'lif tizimi rivojlanishining yangi bosqichiga ko'tarilayotganligi o'qituvchilarni tayyorlash jarayoni sifatiga yangi talablar qo'yemoqda. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy bilimlarni kognitiv idrok etish kompetensiyasini rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli tadqiqotlar olib borish, sohada mavjud muammolarni bartaraf etishning pedagogik asoslarini takomillashtirish zaruriyati mavjudligini ko'rsatdi.

3. Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayoni oldiga qo'yilayotgan talablarning kuchayayotganligi mazkur yo'nalishdagi ilmiy metodik ta'minotni takomillashtirish orqali bo'lajak o'qituvchlarning kreativlik darajasini rivojlantirishga xizmat qiladigan o'quv modellarining mazmunini boyitish yo'nalishidagi tadqiqotlarni kengaytirishni taqozo qilmoqda.

Bo'lajak o'qituvchilar tayyorlash jarayonini ilmiy asosda rivojlantirish uchun umumiy o'rta ta'lif maktablarida yosh avlodga ta'lif berish va tarbiyalash jarayoni oldiga qo'yilayotgan aniq talablardan kelib chiqqan holda bo'lajak pedagoglarni tayyorlash dasturlari mazmunini boyitish, o'quv modullarini takomillashtirish borasidagi izlanishlar ko'lamin kengaytirish talab qilinmoqda. Xususan, oliy pedagogik ta'lif jarayonida, umumiy o'rta ta'lif muassasasida samarali faoliyat olib borish uchun bo'lajak pedagogga zarur bo'ladigan bir qator kasbiy sifatlar, ko'nikma va layoqatlar shakllantirilishi kerak. Tadqiqotda ular sirasiga kiruvchi sifatlarni kognitiv bilimlarni oshirib borishning kreativ yo'llarini topishni ham kiritib o'tildi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абдукаримов Х. Касбий педагогик фаолият. – Т.: О'qituvchi, 2010. -160 b. (Abdukarimov Kh. Professional pedagogical activity. – T.: Educational, 2010. -160 p)
2. Karimova G., Azamatova N. Bo'lajak pedagog kasbiy mahoratining shakllanish mezonlari // Xalq ta'limi – Т.: 2006. 3-son. – 54-57-b. (Karimova G., Azamatova N. Criteria for the formation of professional skills of the future pedagogue // Public education – T.: 2006. 3-number – 54-57-p.)
3. Safarova R. va b. O'quvchilarda o'zaro do'stona munosabatlarga asoslanib hamkorlikda faoliyat ko'rsatish ko'nikmalarini shakllantirish jarayonini tashkil etish tamoyillari va parametrleri \ Monografiya. – Toshkent: Фан ва технология, 2013. 13 b.t.
4. Safarova R. Shaxsni shakllantirish omillari // Ta'lif taraqqiyoti – T., 2001. — № 4-4
5. Kahhorjonovna, O. D. (2022). Approaches to Preparing Future Teachers for the Organization of Cognitive Processes in General Secondary Schools. *Miasto Przyszlosci*, 29, 6-7.
6. Kahhorjonovna, O. D. (2022). Future Teachers' Specific Characteristics of Development of Cognitive Acceptance of Professional Knowledge. *Miasto Przyszlosci*, 29, 1-2.
7. Saydaxmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – T.: O'zMU OPI, 2003. – 68 b.